www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

MASOFAVIY TA'LIM ORQALI BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH

Xo`jjiyev S.O., Yusupov H.N.
Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy sh., O'zbekiston
*e-mail: sodiq2014@mail.ru
humoyun.yusupov10@gamil.com

Ta'lim davlat va davr talablarini bajaruvchi sifatida jamiyatdagi o'zgarishlar bilan uyg`un bo'lishi, jamiyatdagi o'zgarish hamda rivojlanishga o'z ta'sirini o'tkaza olishi lozim. Mazkur holat bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga samarali tayyorlashni shart qilib qo'yadi.

Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad –bo'lajak o'qituvchilarni yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, ijodiy tafakkur yurita olish, o'zi mustaqil yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg`ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat. Shuningdek, o'z fanidan elektron darsliklar yarata bilishib masofaviy ta'limdan foydalana olish, nostandart darslarni tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qila bilishni nazarda tutadi.

Yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanib, axborotlashtirish jarayoni tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan hozirgi davrda ta'lim sohasida axborot resurslarini tashkil etish va ta'limda foydalanishga mamlakatimizda ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi byuirinchi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida «Elektron ta'lim» milliy tizimini yaratish» investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g`risida» 2012 yil 16 apreldagi PQ–1740-son qarori ta'lim sohasida axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishga zamin yaratadi.

Ta'lim tizimiga elektron ta'limni joriy etish birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining axborotlashuviga, axborot ta'lim resurslarini ishlab chiqishga bog`liq. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirish, shu jumladan elektron ta'limni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Elektron ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish ta'lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o'rin olgan.

Ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida elektron ta'limdan foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish, ularni innovatsion faoliyatga tayyorlash ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. O'quv jarayonini elektron ta'lim asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish zarur bo'ladi. Bunda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo'l hisoblanadi.

Zamonaviy telekommunikatsiya vositalari imkoniyatlari juda keng tizim bo'lib, unga ma'lum bo'lgan kompyuter, multimedia vositalari, kompyuter tarmoqlari, Internet kabi tushunchalardan tashqari qator yangi tushunchalar ham kiradi. Bularga axborot tizimlari, axborot tizimlarini boshqarish, axborotlarni uzatish tizimlari, ma'lumotlar ombori, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimi, bilimlar ombori kabilar misol bo'lishi mumkin.

XXI asrni bemalol texnologiyalar va u bilan bog`liq bilimlar asri deya olamiz. Bilimlarni o'rganishning innovatsion turlari, yo'llari, usullarini kengaytirib yuborgan asr bo'ldi.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Ilmiy texnik taraqqiyotning xususiyatlari mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish va uzluksiz, ijodiy bilimlarni egallashni talab qiladi. Bunday ta'lim xizmatlarini ko'rsatish istiqbolli, zamonaviy o'quv tizimlari uchun quyiladigan talablardan biridir. YuNESKO «Ta'limni axborotlash instituti» mutaxassislarining fikricha, ta'lim jarayonini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri dunyo aholisiga axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda, masofaviy o'qitish va mustaqil o'qish imkoniyatlaridan keng foydalanish ta'minotini yaratishdir

Masofaviy o'qitish, ayniqsa:

- o'qitishning an'anaviy usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan, bu jarayon imkoniyatlarining chegaralanganligi tufayli o'qish va ishlashni birgalikda amalga oshira olmaydiganlar uchun;
- turg`un sharoitda o'qish imkoniyatlariga ega bo'lmagan, imkoniyatlari tibbiy shart-sharoitlar tufayli chegaralanganlar uchun;
- o'qituvchilar va boshqa soha mutaxassislarining qayta tayyorlash va malakasini oshirishda;
- chet el o'quv muassasalarida ta'lim olishni istaydiganlar uchun;
- ikkinchi mutaxassislikni egallashni istaydiganlar uchun juda dolzarb bo'lishi mumkin.

Masofaviy o'qitish texnologiyasi tushunchasi standartlashtirilmagan. Eng ko'p tarqalgan ta'rif quyidagicha: masofaviy o'qitish texnologiyasi bu ta'limni belgilangan mazmunini nusxalab amalga oshirishga yo'naltirilgan usullar tizimi, maxsus vositalarning, o'qitish shakllarining majmuasidir.

Masofaviy o'qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyalarning bir ko'rinishi sifatida qabul qilinishi mumkin. «Pedagogik texnologiya» tushunchasi standartlashtirilmaganligini hisobga olgan holda, ko'pincha YuNESKO qabul qilgan tushuncha ishlatiladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasiga berilgan YuNESKO ta'rifiga ko'ra masofaviy o'qitishga quyidagi ta'rifni shakllantirish mumkin: masofaviy o'qitish texnologiyasi – bu inson va texnik resurslarini, ularning o'zaro aloqasini, hisobga olgan holda, ta'lim xizmatining butun jarayonini yaratish, qo'llash va ommaboplashtirish tizimli yondashuvi bo'lib, bilvosita individuallashgan ta'lim tizimida o'qitish shakllarini maqbullashtirishni o'ziga vazifa qilib qo'yadi.

Masofaviy o'qitish texnologiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim axborotlarini taqdim etish texnologiyasi;
- ta'lim axborotlarini uzatish texnologiyasi;
- ta'lim axborotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi.

Istiqbolli zamonaviy o'qitish tizimlari har bir shaxsning o'zi istagan ta'lim olish huquqidan foydalana olish imkoniyatini berishi kerak. Masofaviy o'qitish aynan shunday o'qitish shakli bo'la oladi.

Masofaviy o'qitish tizimida kuyidagi ta'lim texnologiyalarini ishlatish mumkin:

– video-ma'ruzalar; multimedia-ma'ruzalar va laboratoriya amaliyotlari; elektron va multimedia-darsliklari; kompyuter test tizimlar; imitatsiya modellari va kompyuter trenajyorlar; telekommunikatsiya vositalaridan foydalanuvchi maslaxatlar va testlar; videokonferensiyalar.

Axborotlarni saqlash, qayta ishlatish, tinglovchiga yetkazish, o'qituvchi va tinglovchi o'rtasidagi interfaol muloqot, hisoblash texnikani qo'llashga tayangan apparat-dasturlar vositasida amalga oshiriladi. Bular – axborot texnologiyalaridir.

AQShning Stenford universiteti, Massachusets Texnologiya instituti (MTI) kabi bir necha nufuzli oliy o'quv yurtlari bepul "onlayn" kurslarini taqdim etmoqda. Tajriba tariqasida ilk bor tashkil etilayotgan mazkur darslar dunyoning barcha davlatlaridagi talabalar uchun ochiq. Qizig`i

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

shundaki, ushbu kurslarda o’qish mutlaqo bepul va ularni muvaffaqiyatli tamomlaganlarga diplom yoki sertifikat ham beriladi. Ayrim kurslar tekin sertifikat berishadi lekin ko’p kurslarda ma’lum bir tulovdan keyin sertifikat olish mumkin.

Shunday qilib, bugungi kunda bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kopetentligini rivojlantirishda va jahon mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishda ta’lim-tarbiya jarayonidagi innovatsion texnologiyalar bilan qurollantirish davr talabi bo’lib qolaveradi.

Adabiyotlar

1. S.Xo`jjiyev va boshq. “Zamonaviy biologiya ta`limida va tadqiqotlarida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish”, - Elektron ta`lim jurnali 2023y.